

ZAMONAVIY ISLOM HUQUQIDA ER-XOTINNING MULKIY MUNOSABATLARI

Shukurova Shaxrizoda Anvarovna¹

¹ O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islom huquqi mutaxassisligi 1-kurs magistranti,

Toshkent shahar Chilonzor tumanida xususiy

amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius, 3-darajali yurist

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:17.05.2025

Revised: 18.05.2025

Accepted:19.05.2025

KALIT SO'ZLAR:

Islom huquqi, mulkiy munosabatlar, er-xotin huquqlari, mahr, Birlashgan Arab Amirliklari, Misr qonunchiligi, gender tengligi, huquqiy kodifikatsiya.

Maqolada islom huquqining shaxsiy munosabatlarni, xususan, er va xotin o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni tartibga solishdagi roli tahlil qilingan. Islom shariatiga asoslangan qonunchilikka ega bo'lgan Misr va Birlashgan Arab Amirliklaridagi tajribalar o'rganilib, ushbu mamlakatlar qonunlarining umumiy jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Birlashgan Arab Amirliklarining "Shaxsiy status to'g'risida"gi qonunida er-xotinning majburiyatlari va huquqlari, shu jumladan, mahrning miqdori, uni to'lash tartibi hamda er-xotinning o'zaro mas'uliyati belgilangan. Misol tariqasida, mahrning xotin mulki sifatida mustaqil tasarruf etilishi va nikohning ajralmas sharti ekanligi ko'rsatiladi. Shuningdek, maqola ijtimoiy masalalar, gender huquqlari va huquqiy kodifikatsiyaga asoslangan holda zamonaviy islom huquqining ahamiyatini tahlil qiladi. Bu mavzu musulmon aholisi ko'p bo'lgan davlatlarda amaldagi tajribalarni o'rganish va ulardan foyda olish uchun muhimdir.

KIRISH. Zamon shiddat bilan o'zgarib har bir sohada amalga oshirilayotgan islohotlarga mos ravishda islom huquqi ham takomillashtirib kelinmoqda. Ijtimoiy hayotga moslashish uchun islom shariat qoidalari kodifikatsiya qilindi, muammolardan kelib chiqib o'zgarishlar amalga oshirildi. Islom huquqi taraqqiyotga mos tarzda yangi masalalarga javob berib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan islom huquqi amalda bo'lgan mamlakatlarda er va xotin o'rtasidagi mulkiy munosabatlar tartibga solinishini o'rganish, bugungi kunda ulardan foydalanish mavjud masalalarga javob topishda yordam beradi, bu jarayonga sezilarli hissa qo'shadi. Mavjud islom huquqi tajribasini o'rganish asosiy aholisi musulmonlardan iborat bo'lgan bizning mamlakatimiz uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada islom shiati qoidalari amalda bo'lgan Misr va Birlashgan Arab Amirliklari qonunchiligida er va xotin o'rtasidagi mulkiy munosabatlar tahlilini amalga oshiramiz. Misr va Birlashgan Arab Amirliklari davlatlari qonunchiligi ko'rib chiqilishining sababi ushbu mamlakatlar aholisining fihiy mazhabi bizning aholi kabi hanafiy mazhabi hisoblanadi.

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlarining "Kifoya" kitobida quyidagicha ta'rif keladi: "Nikoh" lug'atda "qo'shilish", "jamlanish", "yaqinlashish" ma'nolarini anglatadi.

Shariatda esa, nikoh bir bog'lanish bo'lib, u tufayli ikki bog'lanuvchiga bir-biridan shar'iy asosda qasdan huzurlanishni halol qilishdir.

Hanafiy mazhabining ta'rifida esa, "Nikoh bir bog'lanish bo'lib, u tufayli qasdan huzurlanish, ya'ni er kishining nikohida shar'iy mone' bo'lmagan ayol kishidan huzur olishini halol qilishdir."³⁵

Alloh taolo aytadi:

"... va ular ila yaxshilikda yashang"³⁶(Niso surasi, 19-oyat)

Erkak kishi o'z uyida sakinat va orom topa olishini yaxshilab tushunib olishi lozim. Hayotning barcha jabhalarida muvaffaqiyatga erishgan bo'lsa-da, yaxshi oilaga erisha olmagan erkak haqiqiy oromni – sakinatni his qila olmaydi.³⁷ Ma'lum bo'ladiki, islom huquqida nikoh erkak va ayol o'rtasidagi aloqani qonuniylashtiradi, o'zaro hurmat asosida huquqlarni amalga oshirish, majburiyatlarni bajarishga asos bo'ladi.

Birlashgan Arab Amirliklari "Shaxsiy status to'g'risida" 2005-yildagi 28-son federal qonunning 19-moddasida: "Nikoh er-xotin o'rtasidagi munosabatni qonuniylashtiruvchi

³⁵ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Kifoya. 2-juz. T: "Sharq", 2008. 305-b.

³⁶ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 1-juz. T: "Sharq", 2008. 510-b.

³⁷ Abdumannon Abdulloh. Nikoh kitobi. T: "Hilol nashr", 2024. 25-b.

shartnomadir; uning maqsadi erning homiyligida g'amxo'rlik va mehribonlik asosida er-xotinning o'zaro majburiyatlarini bajarishdan iborat", deyilgan. Ushbu normada er-xotinning majburiyatlari bajarilishida erning homiyligi alohida e'tirof etilgan.

Islom huquqi bo'yicha er-xotin birgalikda hayot kechirish jarayonida huquq va majburiyatlar masalasida barobardir. Ular bir-birini o'zaro hurmat qilish, tinch-totuv yashashlari, bir-biriga yomonlik sog'inmasliklari kerak.³⁸

Ushbu qonunning 49-moddasida "Mahr bu nikoh tuzish uchun er tomonidan taklif etiladigan pul yoki mol-mulkdir. Minimal mahr miqdori belgilanmagan, maksimal miqdori qonun bilan tartibga solinadi." 50-moddasida "Nima bo'lgan taqdirda ham mahr xotinning mulki hisoblanadi, uni o'zi mustaqil tarzda tasarruf etadi."³⁹ Qonunda mahr miqdori shartnomada to'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa shu mahr to'lanishi, agar shartnomada mahr miqdori ko'rsatilmagan, noto'g'ri ko'rsatilgan yoki inkor etilgan bo'lsa, shu sharoitda boshqa ayollarga beriladigan mahri misl berilishi ko'rsatilgan. Bundan ko'rishimiz mumkinki, har qanday holatda ham mahr berilishi nikohning shartlaridan hisoblanadi.

Mahr miqdori to'lig'icha yoki qisman oldindan to'lanishi yoki to'lanishi shartnomada keyinga qoldirilishi mumkin. Mahrni berishda erning moliyaviy ahvoli hisobga olinib uni to'lashning shakli o'zaro rozilik asosida tanlab olinadi.

Birlashgan Arab Amirliklari "Shaxsiy status to'g'risida" federal qonunda er-xotinning huquq va majburiyatlari quyidagilardan iborat ekanligi belgilangan:

- 1) Bir-biridan qonun doirasida foydalanish;
- 2) Qonuniy birgalikda yashash;
- 3) Yaxshi munosabatda bo'lish, o'zaro hurmat va g'amxo'rlik qilish;
- 4) Bolalarga g'amxo'rlik qilish va sog'lom asosda ularning ta'lim olishini ta'minlash.

Ayolning erga nisbatan huquqlari:

- 1) Nafaqalar(alimentlar);
- 2) Ta'limni yakunlashiga to'sqinlik qilmaslik;
- 3) Ota-onalari, bobo-buvilari, aka-uka, opa-singillari bilan ko'rishish;
- 4) Uning shaxsiy mulkiga daxl qilmaslik;

5) Unga jismoniy va ma'naviy zarar yetkazmaslik, unga va boshqa, agar birdan ortiq xotin olgan bo'lsa, xotinlariga adolatli munosabatda bo'lish.

Erning ayolga nisbatan huquqlari:

³⁸ Ж.Тошқулов, Н.Юсупова. Исламда оила ҳуқуқи. Т: "ТИУ", 2015. 106-б.

³⁹ Объединенные Арабские Эмираты Федеральный закон № (28) от 2005 года «О статусе личности», <https://pravo.hse.ru/data/2023/02/22/2033899434/.pdf>

- 1) Rozilik bilan bo'ysunish;
- 2) Uy va undagi narsalarni himoyalash;
- 3) Undan bo'lgan bolalarini emizish, agar qarshi ko'rsatmalar mavjud bo'lmasa.⁴⁰

Yuqorida keltirilganlardan ma'lum bo'ladiki, Birlashgan Arab Amirliklari federal qonuni er-xotinning o'zaro munosabatlarini atroflicha tartibga soladi, huquq va majburiyatlarini belgilab beradi, mulkiy munosabatlariga alohida e'tibor qaratadi.

Misir Arab Respublikasida "Shaxsiy status to'g'risida"gi qonun 1929-yilda qabul qilingan, unga 1929-yilda o'zgartirishlar kiritilgan. 1979-yilda o'zgartirishlar bilan tasdiqlangan, lekin 1985-yilda Oliy Konstitutsiyaviy sud tomonidan protsessual sabablarga ko'ra bekor qilingan. Ta'kidlash kerakki, Misrda musulmon bo'lmagan aholiga, ular o'z dinlari qoidalariga asosan nikohlangan bo'lsalar, shariat qoidalariga asosidagi nikohga oid normalar tadbiq etilmaydi. Din asosida, er va xotin bir dinda bo'lmagani holda kelib chiqqan nizolarni hal etish uchun ushbu qonun normalariga murojaat etiladi. 1976-yildagi 62-son "Moliyaviy ko'mak va nafaqalar to'g'risida"gi va 1943-yildagi qonun vorislik masalalari haqida bo'lib, bu qonunlar barcha misrliklarga tadbiq etiladi.

Misrda nikoh shartnomasi o'zaro rozilik asosidagi kelishuv hisoblanadi: nikoh shartnomasi tomonlarning so'zda aytilgan xohish-irodalarini aks ettiruvchi fuqarolik-huquqiy shartnomasi bo'lganligi sababli ular o'zaro munosabatlari o'rnatilishi uchun zarur bo'lgan qo'shimcha shartlarga ham kelishishlari mumkin.

Nikoh shartnomasi haqiqiy deb hisoblanishi uchun, mahr kabi ba'zi zaruriy shartlar mavjud bo'lishi kerak.

"Mahr" kelinga nikohga kirishilayotganga to'lanadigan to'lov va "Muahr as-Sadaq"(so'zma-so'z "kechiktirilgan mahr") ajrashish yoki urning vafoti sababli xotinga to'lanadigan to'lov hisoblanadi. Xotinga o'zini ajrashgan deb e'lon qilish – "isma", erga ajrashish huquqi – aybini ko'rsatmasdan yoki sababini keltirmasdan: xotinga "Bor, sen ajrashgansan" (bor, sen taloqsan) deya yolg'iz va guvohlar ishtirokisiz aytish orqali avtomatik tarzda berilgan. Buni rasmiylashtirish uchun er Ma'azounda ajrashishni ro'yxatdan o'tkazishi kerak. Xotinga "Isma" huquqini berish urning o'zi xohlagan paytda xotini bilan ajrashish huquqiga putur yetkazmaydi. Bu ko'proq nikoh shartnomasining consensus (rozilik, bir qarorga kelish) xarakterini ta'kidlaydi, ishtirokchilarning erkin xohish-irodasini rasmiylashtirish bilan bir qatorda ularning o'zaro roziligi davom etishini

⁴⁰ Объединенные Арабские Эмираты Федеральный закон № (28) от 2005 года «О статусе личности», <https://pravo.hse.ru/data/2023/02/22/2033899434.pdf>

ham taqozo etadi. Xotinga ajrashish huquqining berilishi erning ajrashishga bo'lgan bir tomonlama huquqini poymol qiladi degan, keng tarqalgan qarash ham bor. Bu hech ham haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Bu ba'zi yuristlar tomonidan erning xotinga nisbatan huquqlarining nikoh shatnomasida vakolatlarni topshirish sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, ushbu huquqning nikoh shartnomasida aks ettirilishi xotinni ajrashish paytida zararni isbotlash majburiyatidan ozod etadi. Majburiyatlarni bajarish, sud pretsidenti ko'rsatadiki, ko'p hollarda qiyin va ba'zi hollarda bajarish imkonsiz.⁴¹

Xulosa

Ko'rishimiz mumkinki, mahr nikoh tuzilish shartlaridan biri bo'lib islom huquqida bunga katta e'tibor beriladi, oilada erning moliyaviy ta'minoti, homiyligi, nafaqalar to'lashi kerak bo'ladi. Islom huquqida erning xotinni yetarli darajada moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashi, homiyligi - mahr, nafaqalar berishi asosida ayolning erga itoati – rozilik bilan bo'ysunish, uyni muhofaza qilish, farzandlarga g'amxo'rlik qilishi zarurligi ta'kidlangan. Ma'lum bo'ladiki, islom huquqida er va xotinning o'z tabiati, xususiyati, fitratini hisobga olgan holda er-xotinning o'zaro mulkiy huquq va majburiyatlari belgilab beriladi. Ushbu huquqlar va majburiyatlarning bajarilishi davlat tomonidan kafolatlanadi, tartibga solinadi hamda himoya qilinadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya. 2-juz. T: "Sharq", 2008. 305-b.
2. Abdumannon Abdulloh. Nikoh kitobi. T: "Hilol nashr", 2024. 25-b.
3. Ж.Тошқулов, Н.Юсупова. Ислонда оила ҳуқуқи. Т: "ТИУ", 2015. 106-б.
4. Объединенные Арабские Эмираты Федеральный закон № (28) от 2005 года «О статусе личности», <https://pravo.hse.ru/data/2023/02/22/2033899434/.pdf>
5. https://www.facebook.com/legalhelpegy/posts/1641614696081603/?_rdr

⁴¹ https://www.facebook.com/legalhelpegy/posts/1641614696081603/?_rdr